

PEDAGOGIKA

Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, tamoyillari, qonuniyatlari, uni tashkil etish masalalari, metodikasi, shakli, metod, vosita, usul va muammolarini o'rganadi.

- A) Tarbiya
- B) Tarbiya nazariyasi
- C) Tarbiya jarayoni
- D) Tarbiya tamoyillari

Muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

- A) Tarbiya
- B) Tarbiya nazariyasi
- C) Tarbiya jarayoni
- D) Tarbiya tamoyillari

Irsiyat nima?

- A) shaxsda milliy-etnik xususiyatlarning namoyon bo'lishi;
- B) ajdodlarga xos biologik belgi va rivojlanish xususiyatlarini keyingi avlodlarga o'tish jarayoni;
- C) bir avlodga xos biologik belgilarning ikkinchi avlodda aynan takrorlanishi;
- D) ota-onaga xos xarakter xususiyatlarining farzandlarda bevosita takrorlanishi.

Tarbiya tamoyillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) tarbiya maqsadining aniqligi; ixtiyoriylik; jamoaviylik; izchillik, uzluksizlik, tizimlilik;
- B) bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati; o'z-o'zini anglash; ilmiylik; insonparvarlik;
- C) pedagogik jarayonning hayot va amaliyot bilan bog'liqligi;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

Shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsating.

- A) ommaviy axborot vositalari, ta'lim, sog'lom turmush tarzi
- B) muhit, ta'lim, bolalar jamoasi
- C) irsiyat, muhit, tarbiya
- D) tarbiya, bolalar jamoasi, ommaviy axborot vositalari

O'quvchilar guruhi (jamoasi) tomonidan tashkil etilib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgani holda bevosita shaxsni har tomonlama kamol toptirish, muayyan ijtimoiy ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan mehnat faoliyati turi qanday nomlanadi?

- A) o'quv mehnati;
- B) o'z-o'ziga xizmat;
- C) ishlab chiqarish mehnati;
- D) ijtimoiy-foydali mehnat;

Estetik did nima?

- 1) estetik axborotlar oqimi,estetik va axloqiy me'yorlar yig'indisiorqali shakllanib
- 2) shaxsning buyum,hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa
- 3) shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi subyektiv omil

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 2
- C) 1, 3
- D) 2, 3

Xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan ?

- A) o'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish, o'z-o'zini baholash, izohlash, munozara;
- B) musobaqa, rag'batlantirish, jazolash;
- C) odatlantirish, mashqlantirish, topshiriq, pedagogik talablar, jamoatchilik fikri, tarbiyalovchi vaziyat;
- D) hikoya, etik suhbat, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, ishontirish, nasihat, yo'riqnoma, munozara;

“Tarbiyalash pedagogik ta'sir ko'rsatish xususiyatga ega xatti-harakatlar majmui”. Ushbu izoh qanday tushuncha mazmunini ifodalaydi?

- A) tarbiya metodlari;
- B) tarbiya shakllari;
- C) tarbiya vositalari;
- D) tarbiya usullari.

Shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui

- A) Bilim
- B) Ko'nikma
- C) Malaka
- D) Ma'lumot

SHaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati

- A) Ma'lumot
- B) Malaka
- C) Ko'nikma
- D) Bilim

Muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli

- A) Ma'lumot
- B) Faoliyat
- C) Malaka
- D) Ko'nikma

#Shaxsga nazariy tushunchalar asosida predmet, buyum, voqelik va hodisalar mohiyatini estetik baholay olish imkonini beruvchi his-tuyg'u, sezgi, tasavvur va qarashlar shakli

- A) Estetik tarbiya
- B) Estetik ong
- C) Estetik did
- D) Estetik qarash

Tarbiya maqsadiga erishish, tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish yo'llari

- A) Tarbiya metodi
- B) Tarbiya maqsadi
- C) Tarbiya tamoyili
- D) Tarbiya qonuniyatlari

Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?

- 1) Irsiyat 2) Muhit
- 3) Vaziyat 4) Tarbiya
- A) 1, 2, 3, 4
- B) 2, 3, 4
- C) 1, 2, 4
- D) 1, 3, 4

Tanbeh berish, ogohlantirish, hayfsan berish, uyaltirish – bular...

- A) Rag'batlantirish turlari
- B) Jazolash turlari
- C) Tarbiya turlari
- D) Tarbiya usullarining turlari

Bu tarbiyalash, pedagogik ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega hatti-harakatlar majmui bo'lib, ular yordamida shaxsning qarashlari, motivlari, harakatlarini o'zgartirish maqsadida uning xulqiga va pozitsiyasiga tashqi ta'sir ko'rsatiladi

- A) Rag'batlantirish turlari
- B) Jazolash turlari
- C) Tarbiya usullari

D) Tarbiya turlari

Tarbiya jarayonining ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan moddiy buyumlar, narsalar, ma'naviy omillar, faoliyat (o'yin, o'qish, mehnat, muloqot) hamda hissiy yondashuv ko'rinishi

A) Tarbiya usullari

B) Tarbiya turlari

C) Tarbiya vositalari

D) Tarbiya metodlari

Tarbiyalanuvchining hatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usullari sanaladi.

A) Xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlari

B) Izohlash

C) Munozara

D) O'z-o'zini tarbiyalash metodlari

Metodologiya – bu...

A) o'quv jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi uslublar majmui;

B) shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq

C) ilmiy bilish, dialektik taraqqiyot mohiyatini yorituvchi ustuvor g'oya, yetakchi tamoyil, muhim qonuniyatlar*

D) yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari

Didaktika (ta'lim nazariyasi) qanday masalalarni tadqiq etadi?

1) jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga

2) shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirish masalalarini;

3) ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayonining mohiyati,

4) tamoyillari, qonuniyatlari, o'quvchi va o'qituvchi faoliyati,

5) ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari, h.k. muammolarni;

A) 1, 3, 4

B) 3, 4, 5

C) 1, 3, 5

D) 1, 2, 3

“Didaktika” tushunchasi ilk bor kim tomonidan qo'llanilgan?

A) I.F.Gerbert

B) D.K.Ushinskiy

C) YA.A.Komenskiy

D) Suqrot

Ushbu ta'rif yordamida qanday tushuncha yoritiladi
Uzluksiz ta'lim bosqichlarining asosiy ta'lim dasturlari
mazmunining zaruriy minimumi, o'quvchilarga yuklanadigan o'quv
yuklanmalarning maksimal hajmi, ta'lim muassasasi bitiruvchilarining
tayyorgarlik darajasi, ta'lim jarayonini ta'minlash (uning moddiy-texnik,
o'quv-laboratoriya, axborot-metodik,
kadrlar ta'minoti)ning
asosiy talablarini aniqlab beradigan me'yor va talablar.

- A) davlat ta'lim standartlari;
- B) ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalar;
- C) ta'lim jarayonini samarali tashkil etish shartlari;
- D) "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining faoliyati to'g'risida"gi Nizom.

Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarish qanday xarakterga ega?

- A) ixtiyoriy
- B) majburiy
- C) majburiy-ixtiyoriy
- D) minimal

O'quv rejasining turlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) namunaviy, muqobil va ishchi o'quv rejalari
- B) muqobil, tayanch va namunaviy o'quv rejalari
- C) tayanch, namunaviy va ishchi o'quv rejalari
- D) ishchi, tayanch va muqobil o'quv rejalari

Muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga
muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba;

- A) Dars
- B) Darslik
- C) Ish reja
- D) Metodik qo'llanma

Sinf nima?

- A) yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchilar guruhi;*
- B) ma'lum yo'nalishda alohida qobiliyatni namoyon etadigan o'quvchilar guruhi;
- C) jinsi, ijtimoiy mavqei, yosh nuqtai nazaridan boshqadan farqlanuvchi o'quvchilar jamoasi;
- D) aniq maqsad yo'lida ma'lum faoliyatni tashkil etadigan o'quvchilar jamoasi

Hikoya, o'quv materialini tushuntirish, maktab ma'ruzasi, suhbat, darslik va
kitoblar bilan ishlash.

Mazkur metodlar qanday turdagi metodlarni ifodalaydi?

- A) shaxsni rag'batlantirish metodlari
- B) amaliy metodlar
- C) ko'rgazmalilik metodlari
- D) og'zaki bayon qilish metodlari

Ta'lim vositasi nima?

- A) muayyan mavzuni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladigan manba
- B) muayyan o'qitish metodi yoki usullardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quvmateriali
- C) o'quv fani asoslarini o'zida aks ettiruvchi darslik
- D) to'g'ri javob yo'q

Aniq jarayonlarni raqamlar tizimi asosida modellashtirish bo'lib, u sifat tavsiflarni miqdor o'zgarishlarga aylantirishga yordam beradi.

- A) Shkalalash
- B) Test
- C) Amaliy topshiriq
- D) Uy vazifasi

Bevosita o'qituvchining rahbarligi, nazorati ostida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayoni

- A) Sinf
- B) Dars
- C) Ekskursiya
- D) Suhbat

Muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni, tuzilishiga ko'ra o'quv dasturiga mos keladi.

- A) Darslik
- B) O'quv dasturi
- C) Dars
- D) Sinf

Me'yoriy hujjat bo'lib, unda har bir o'quv predmetining mazmuni yoritiladi, o'quv yilida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar hajmi ko'rsatiladi

- A) O'quv dasturi
- B) Dars
- C) O'quv rejasi
- D) Darslik

Muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui

- A) Mahorat
- B) Pedagogik mahorat
- C) Pedagogik ijod
- D) Pedagogik qobiliyat

Pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me'yor, standartlarga muvofiq tashkil etishga bo'lgan qobilligi; kasbiy tayyorgarlik darajasi

- A) Pedagogik faoliyat
- B) Pedagogik texnika
- C) Pedagogik bilimdonlik
- D) Pedagogik tajriba

Bu o'qituvchi oldiga uning o'zi, kasbi, jamiyat, bolalar va o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo'lishiga nisbatan qo'yiladigan axloqiy talablar tizimi

- A) Pedagogik burch
- B) Pedagogik odob
- C) Pedagogik mahorat
- D) Pedagogik obro'

Bu o'qituvchining o'quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy maqomi

- A) Pedagogik obro'
- B) Pedagogik ong
- C) Pedagogik muloqot
- D) Pedagogik majburiyat

O'qituvchining o'quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob, muloqot talablariga muvofiq uyushtiradigan suhbat

- A) Pedagogik muloqot madaniyati
- B) Pedagogik madaniyat
- C) Pedagogik ong
- D) Pedagogik qobiliyat

Pedagogik muloqot turlari berilgan qatorni toping.

- 1) o'zaro ijodiy faoliyatga qiziqtiradigan muloqot;
- 2) o'zaro do'stona munosabatga asoslangan muloqot;
- 3) muayyan masofani saqlagan holda tashkil etiladigan muloqot;
- 4) qo'rqitish, tahdid qilishga asoslangan muloqot;

5) hazil-mutoyiba, yumorga asoslangan muloqot

- A) 1, 3, 5
- B) 1, 2, 4
- C) 1, 2, 3, 4
- D) 1, 2, 3, 4, 5

O'qituvchi muloqotining asosiy uslublari qaysilar?

- A) avtoritar uslub, demokratik uslub, liberal uslub;
- B) avtoritar uslub, demokratik uslub, an'anaviy uslub;
- C) demokratik uslub, an'anaviy uslub, zamonaviy uslub;
- D) og'zaki uslub, yozma uslub, liberal uslub

Bu gavda, qo'l va oyoqlarning harakati bo'lib, u o'qituvchi tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko'rsatishga, ma'lum qiyofa orqali gavdalantirishga imkon beradi

- A) Pantomimika
- B) Mimika
- C) Diksiya
- D) Nutq texnikasi

Bu yuz muskullarining harakatlari orqali o'z fikri, his-tuyg'ulari, kayfiyatini, mavjud voqelikka nisbatan munosabatini ifodalash

- A) Nutq texnikasi
- B) Mimika
- C) Nafas olish
- D) Pantomimika

Bu ayrim so'z, bo'g'inlarning aytilish muddati, to'xtalishi, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'rnida ishlatilishini bildiradi

- A) Ritmika
- B) Diksiya
- C) Mimika
- D) Ritm

O'pka, ikkita bronx, traxeya, kekirdak, bo'g'iz, hiqildoq, halqum, tishlar, lablar, burun bo'shlig'i. Bular qanday organlar sanaladi?

- A) tovush hosil qiluvchi organlar;
- B) nutq hosil qiluvchi organlar;
- C) his-tuyg'ularni hosil qiluvchi organlar;
- D) amaliy xatti-harakatlarni hosil qiluvchi organlar.

Diksiya nima?

- A) so'zlarning aniq talaffuz qilinishi

- B) so'zlarning to'g'ri qo'llanilishi
- C) so'zlarning ko'chma ma'no anglatishi
- D) so'zlarning tub ma'nosi.

Respublika va jahon ilm-fani o'rtasida integrasiyani qaror toptirish hamda ilmiy yutuqlar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashuvini amalga oshirish milliy modelning qaysi tarkibiy qismi tomonidan amalga oshiriladi?

- A) davlat va jamiyat
- B) shaxs
- C) ishlab chiqarish
- D) fan

“Kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi” ta'rifi kadrlar tayyorlash milliy modelining qaysi tarkibiy qismiga nisbatan aytilgan?

- A) fan
- B) uzluksiz ta'lim
- C) davlat va jamiyat
- D) ishlab chiqarish

Pulli ta'lim xizmatlari qanday tartibda tashkil etiladi?

- A) ta'lim muassasasi va jismoniy shaxslar o'rtasidagi shartnoma asosida
- B) mavjud qonunchilik talablariga muvofiq lisenziya asosida
- C) turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro kelishuvga muvofiq
- D) xalqaro huquq talablariga muvofiq

O'zbekiston Respublikasida ta'lim qanday turlarda amalga oshiriladi?

- 1) maktabgacha
 - 2) umumiy o'rta
 - 3) o'rta maxsus, kasb-hunar
 - 4) oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim
 - 5) kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
 - 6) maktabdan tashqari ta'lim;
- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6
 - B) 1, 3, 4, 6
 - C) 1, 2, 3, 5
 - D) 1, 2, 5, 6

Ta'lim dasturlarining turlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) namunaviy, muqobil, ishchi, mualliflik va individual dasturlar;
- B) ijtimoiy, ta'limiy, ilmiy, o'quv va hamkorlik dasturlari;

- C) binar, trening, seminar, amaliy va ilmiy dasturlar;
- D) ilmiy, ta'limiy, ijtimoiy, binar va trening dasturlari

O'quv rejasida nima aks etadi?

- A) sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv predmetlari
- B) sinflarda o'qitiladigan o'quv predmetlari uchun ajratilgan haftalik soatlar
- C) sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv predmetlari, o'sha predmet uchun ajratilgan haftalik soatlar
- D) sinflarda o'quv predmetlari bo'yicha mashg'ulotlarni olib boradigan o'qituvchilar

O'qituvchi o'zida qanday sifatlarni aks ettira olishi lozim

- 1. kasbiy
 - 2. tashkilotchilik
 - 3. muloqotga kirishuvchanlik
 - 4. o'quvchilar jamoasiga rahbarli boshqaruvchilik
 - 5. ish yurita olish, ijodiy faoliyatni tashkil eta olish
 - 6. tadqiqotchilik va voqelikni to'g'ri baholay olish
- A) 1, 3, 5
 - B) 1, 2, 4, 6
 - C) 1, 2, 3, 4, 5, 6
 - D) 1, 2, 4, 5, 6

Pedagogik, psixologik va tegishli mutaxassislik bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lib, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs

- A) Faylasuf
- B) Olim
- C) O'qituvchi
- D) Tarbiyachi

Tegishli ravishda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari so'zsiz amal qilishlari lozim bo'lgan davlat hujjati

- A) O'quv dasturi
- B) O'quv rejasi
- C) O'quv maqsadi
- D) Tamoyili

Bu tamoyil uzluksiz ta'lim tizimi faoliyatini tashkil etishda ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'zaro ajratilmasligi, alohida-alohida tashkil etilmasligi, aksincha, o'zaro birlik hamda aloqadorlikda olib borilishi lozimligini anglatadi. Unga ko'ra o'quv mashg'ulotlari davrida o'quvchilarga berilayotgan bilimlar, ularda hosil qilinayotgan amaliy ko'nikma, malakalar, muayyan ma'naviy-axloqiy, jismoniy,

mehnat, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va boshqa sifatlarni shakllantirish, umumiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi lozim O'quv dasturini yaratishning qaysi tamoyili?

- A) Ta'lim va tarbiya birligi tamoyili.
- B) G'oyaviylik tamoyili
- C) Nazariya va amaliylik tamoyili
- D) Amaliylik tamoyili

Ushbu tamoyil dasturda o'quv fanining ma'lum ta'lim muassasasi, uning bosqichlari maqsadi va vazifalari, uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bo'g'inida o'quvchilarning ongi, dunyoqarashiga moskeladigan bilim hajmi – fan asoslarining yoritilishini ham ifodalaydi

O'quv dasturini yaratishning qaysi tamoyili?

- A) Ta'lim va tarbiya birligi tamoyili
- B) G'oyaviylik tamoyili
- C) Nazariya va amaliylik tamoyili
- D) Ilmiylik tamoyili

Ta'lim dasturlari bir necha turga ajratiladi. Ular qaysilar?

- 1) Namunaviy dasturlar
 - 2) Muqobil dasturlar
 - 3) Asosiy turlari 4) Individual dasturlar
 - 5) Ishchi dasturlar
 - 6) Mualliflik dasturlar
- A) 1, 3, 4, 6
 - B) 1, 2, 3, 4, 5
 - C) 1, 2, 3, 4, 5, 6
 - D) 2, 4, 5, 6

Ta'lim tizimining asosiy subyekti –bu ta'lim oluvchi ekanligi, shu bois uning ma'naviy-axloqiy estetik dunyoqarashini shakllantirish, unda yuksak ma'naviyat, madaniy xulq-atvor va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqligini anglatadi Uzluksiz ta'limning qaysi tamoyili

- A) Ta'limning ijtimoiylashuvi
- B) Ta'limning ustuvorligi
- C) Ta'limning demokratlashuvi
- D) Ta'limning insonparvarlashuvi

Ushbu ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muasasalari, oilalarda amalga oshiriladi.
Respublika uzluksiz ta'lim tizimining qaysi turiga kiradi?

- A) Maktabgacha ta'lim
- B) Umumiy o'rta ta'lim
- C) O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim
- D) Oliy ta'lim

Ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi

- A) Bakalavr
- B) Magistr
- C) Fan doktori
- D) Dotsent